

ANALYSIS OF METHODOLOGICAL RESEARCH ON TEACHING CLASSICAL WORKS

Intizor Atabekovna Jumaniyazova

High-Class Teacher of the Creative School Named After Abdulla Qadiri

Abstract

In the article, it is emphasized that the methodology of teaching literature by Uzbek Methodists belongs to the system of pedagogical sciences, and opinions are given about the textbooks, pamphlets and manuals, researches created by Methodist scientists. In the Uzbek national methodology, within the framework of the problems of literature education, certain works have been carried out to teach, teach, interpret and explain classic works, to make people feel the sophistication of the meaning in the text, and to correctly understand the author's poetic intention.

Keywords: methodology, pedagogical sciences, Methodist scientists, Uzbek national methodology, author's poetic intention.

MUMTOZ ASARLARNI O'QITISHGA DOIR METODIK TADQIQOTLAR TAHLILI

Intizor Atabekovna Jumaniyazova

Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabining oliv toifali o'qituvchisi

Annotatsiya:

Maqolada hozirga qadar o'zbek metodistlari tomonidan adabiyot o'qitish metodikasining pedagogik fanlar tizimiga mansub ekanligi ta'kidlanib, metodist olimlar tomonidan yaratilgan darslik, risola va qo'llanmalar, tadqiqotlar haqida fikrlar keltirilgan. O'zbek milliy metodikasida adabiyot o'qitish muammolari doirasida mumtoz asarlarni o'qitish, o'rgatish, sharhlab tushuntirish, matndagi ma'no nafosatini his qildirish, muallif poetik niyatini to'g'ri anglatish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilgani aytilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: metodika, pedagogika fanlari, metodist olimlar, o'zbek milliy metodikasi, muallif poetik niyati.

Introduction

Ta'lim bosqichlarida mumtoz asarlarni o'qitish orqali yoshlar ruhiy olamini boyitish, estetik didini oshirish, ularda ona tiliga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'tmish ajdodlar merosiga hurmat-ehtirom ko'rsatishga yo'naltirish maqsadida metodist olimlar A. Zununov, N. Hotamov, S. Dolimov, H. Ubaydullayeva, Q. Ahmedov va J. Esonov, S. Matjonov, Q. Yo'ldoshev, B. To'xliyev, M. Mirqosimova, Q. Huanboyeva, R. Niyozmetova, V. Qodirov, Z. Mirzayeva, K. Jalilov, S. Qambarova, K. Mavlonova, D. To'xliyevalar, I. Ishonxonova tomonidan adabiyot o'qitish muammolariga doir darslik, monografiya, risola, o'quv qo'llanma, metodik tavsiyalar yaratilgan, fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Metodist olimlar A.Zununov, N.Hotamov, J.Esonov, A.Ibrohimovlarning “Adabiyot o‘qitish metodikasi” qo‘llanmasida adabiyot fanining ijtimoiy fanlar bilan aloqasi haqida quyidagi fikrlar aytilgan: “Adabiyot fani o‘quvchilarning estetik va g‘oyaviy-ijtimoiy tarbiyasida ham muhim rol o‘ynaydi. Adabiyot ana shunday xususiyati bilan boshqa ijtimoiy fanlarga bog‘lanadi. Chunonchi, u estetik ta’sirchanlik xususiyati bilan ona tili va psixologiyaga, g‘oyaviy-ijtimoiy mazmuni bilan tarix va jo‘grafiya bilan egizakdir”¹. Mazkur qo‘llanmada ijtimoiy fanlar o‘zaro bog‘liq holda o‘rganilmasa, o‘quvchilar ongida har bir fan bo‘yicha bir-biridan ajralgan tushunchalar hosil bo‘lishi alohida ta’kidlangan. Tarixiy, falsafiy, adabiy dalillar va qonuniyatlar haqida bir butun bilim berilgan holda, o‘quvchilarda ijtimoiy hayot va san’at voqealarni mustaqil aniqlash malakasini va izchil dunyoqarashni shakllantirishga yordam beruvchi vosita va tavsiyalar aniq ko‘rsatilgan.

Ayni paytda, kitobda asar matnini, yoinki badiiy asarni izohli o‘qish haqida qimmatli ma’lumotlar ham berilgan: “Izohli o‘qish jarayoni qismlari o‘zining tuzilishiga ko‘ra shunday xususiyatga ega edi: kirish mashg‘ulotida o‘quvchilarga bilim tayyor holda emas, balki ma’nosи yoritilgan, sharhlangan, isbotlangan holda beriladi, bilim berishda ko‘rgazmalilikdan foydalaniladi. Ta’limda bu usulni qo‘llash o‘quvchida xotira bilan birga, kuzatish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi”². Darhaqiqat, nutqning boy bo‘lishi “...o‘zbek xalqining qochiriq so‘zları va ko‘chma ma’noli so‘zlaridan, o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, istiora, mubolag‘a kabi badiiy til vositalaridan, ritorik so‘roq gaplardan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Tilning bu tasviriy vositalari nutqqa go‘zallik, joziba va rang-baranglik baxsh etadi”³. Shuningdek, “Maktabda adabiyot o‘qitish metodikasi” kitobida ham badiiy matnlarni sharhlab o‘qitish haqida ilmiy xulosalar berilgan: “Sharhli o‘qish o‘qituvchidan ham, o‘quvchidan ham puxta tayyorgarlikni talab etadi, o‘quvchilarni asarni bevosita idrok qilish, o‘qish mashg‘ulotini asarni analiz qilishga, mustaqil aqliy faoliyatga tayyorlaydigan darajada tashkil etishni talab qiladi”⁴.

Metodist olimlar Q. Yo‘ldoshev, O.Madayev, A.Abdurazzoqovlar tomonidan tayyorlangan “Adabiyot o‘qitish metodikasi” nomli dasturiy qo‘llanma o‘zbek adabiyotini maktablarda bugungi kun talabi darajasida o‘qitish muammolarini hal qilishga bag‘ishlangan. Unda maktablarda adabiyot o‘qitishdan bosh maqsad o‘quvchining qalbini shakllantirish ekanligi, adabiyot darslarida o‘quvchilar badiiy asarlarni, adiblarning tarjimai hollarini, nazariy bilimlarni shunchaki bilib qo‘ya qolishlari kifoya emasligi, yosh avlod his qilishga odatlanishi lozimligi ta’kidlangan.Olim Q.Yo‘ldashev yozganidek: “O‘quvchilar diqqati asarda aks etgan voqealar oqimigagina qaratilib qolmay, ana shu voqealar bayoni asnosida qo‘llanilgan badiiy san’atlar hamda ijodkorning mahoratini namoyon qiluvchi jihatlarga yo‘naltirilsa, ularning ko‘ngil ko‘zi ochiladi. Shunda bolalar so‘zning sehrini his etadi, uning badiiy ichki imkoniyatini, yashirin qirralarini topa oladigan bo‘lib boradi”⁵.

¹ Zununov.A.,Hotamov N.,EsonovJ., Ibrohimov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi.-Toshkent: O‘qituvchi,1992. B-14.

² Zununov.N.Hotamov.J.Esonov.A.Ibrohimov. Adabiyot o‘qitish metodikasi:-Toshkent: O‘qituvchi.1992.B-38

³ G‘ulomov A.,Qodirov M.,Ernazarova M.,Bobomurodova A.,Alavutdinova N.,Karimjonova V.Ona tili o‘qitish metodikasi.-Toshkent: Fan va texnologiya ,2012. B-310

⁴ ZununovA,J.Esonov Adabiyot o‘qitish metodikasi:- Toshkent: O‘qituvchi. 1985.B-196

⁵Husanboyeva Q.Niyozmetova R.Adabiyot o‘qitish metodikasi.o‘quv qo‘llanma.-T.:Barkamol fayz media,2018,B-11

Aytish kerakki, hozirga qadar o‘zbek metodistlari tomonidan adabiyot o‘qitish metodikasining pedagogik fanlar tizimiga mansub ekanligi asoslangan. Pedagogika fanlari doktori R. Niyozmetovaning fikricha, adabiyot o‘qitish metodikasining o‘ziga xosligi quyidagilarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

Adabiyot o‘qitish metodikasi o‘rganadigan soha ilmdagi boshqa biror o‘quv fani tomonidan o‘rganilmaydi.

Mazkur fan ishlaydigan soha, ya’ni adabiyot darslarida badiiy asarlar o‘qitilishining optimal va samarali yo‘llarini tadqiq etish, adabiy ta’limning nazariy asoslarini ishlab chiqish ulkan ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Adabiyot o‘qitish metodikasi fani o‘ziga xos ilmiy-tadqiqot usullariga ega⁶. Metodist olim V.Qodirovning “Umumta’lim maktablarida o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari” mavzusidagi pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi ta’lim tizimida mumtoz adabiyotni o‘qitishning ahvoli, murakkablik darajasi, adabiy tur talablaridan kelib chiqib mumtoz namunalarni o‘qitishning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi va zarurati shundaki, unda so‘z san’ati, mumtoz adabiyotning beqiyos imkoniyatlarga ega ekanligi, ajoddollarimizdan o‘tib kelayotgan ma’naviy merosni jamiyat a’zolari, xusan, yoshlar ong-u qalbiga singdirish ta’lim-tarbiya sohasidagi ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi alohida o‘rganilgan.

V. Qodirovning tadqiqotida mumtoz adabiy meros vositasida yoshlarda ma’naviy, mafkuraviy immunitetni shakllantirish, yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga da’vat etilgan ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va takomillashtirishga katta e’tibor qaratilayotganligini aytib o‘tadi. Mazkur doktorlik ishida quyidagi masalalarga jiddiy e’tibor qaratilgan:

- 1.Umumta’lim maktablarida mumtoz adabiyot o‘qitishning ahvoli va o‘ziga xos jihatlari.
- 2.Mumtoz adabiyotni o‘qitishdagi murakkabliklar
3. Maktabda mumtoz adabiyot o‘qitishning badiiy-estetik va ilmiy-pedagogik asoslari
4. Mumtoz adabiyot namunalarini o‘rganish asoslari
5. O‘quvchilarda nazariy bilimlarni shakllantirish
- 6.Lirik asarlar tahlilida janr xususiyatlarini hisobga olish
7. Nasriy asarlarni o‘rgatish samaradorligini oshirish usullari
8. Liro-epik asarlarni tahlil qilish metodikasi

V.Qodirov tadqiqotida ma’naviy meros, jumladan, mumtoz adabiyot vositasida yurtning ertangi egalari bo‘lmish yoshlarni ma’rifati yuksak jamiyat a’zolari etib shakllantirishning modernizatsiyalashgan ta’lim-tarbiya tizimini ishlab chiqish, ta’lim muassasalari pedagogik xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish modelini takomillashtirishga doir ilmiy tadqiqotlar keng miqyosda olib borilayotganligini maxsus ta’kidlaydi. Ayni paytda, mumtoz adabiyot namunalarini o‘qitishning aniq ilmiy xulosalarga tayangan badiiy-estetik, ilmiy-pedagogik asoslarini belgilash, o‘quvchilarda shakllantiriladigan bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish shakli va bosqichlarini aniqlash, tarbiyalanuvchilarining yosh xususiyatlarini, tavsiya etilgan asarlarning tur va janr talablaridan kelib chiqib badiiy matnni tahlil qilish

⁶ Yo‘ldashev Q. Adabiy saboqlar: Umumta’lim maktablarining 7-sinf “Adabiyot” darsligi uchun metodik qo’llanma.-T.: Bilim,2003,- B-144

kompetensiyalarini mukammallash usullari va metodlari olim tomonidan ishlab chiqilgan va ilg‘or innavatsion ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish masalasiga e’tibor qaratilgan. V.Qodirovning dissrtatsiya ishi fundamental tadqiqot sifatida adabiyot o‘qitish metodikasida ilmiy ahamiyatga ega. Shunga qaramay, uzlusiz ta’lim tizimida mumtoz adabiyot namunalarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish zarurati mavjudki, ijod maktablarida mumtoz matn bilan ishslashning yangi yo‘l va usullarini izlab topish,xorijiy va milliy metodika qorishuvi asosida zamonaviy adabiyot darslarini tashkil etish ehtiyoji to‘liq qondirilmagan.

So‘nggi yillarda global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti bo‘yicha izlanishlar olib borayotgan olima Z.Mirzayeva, K.Jalilovlarnning fikricha, bugun adabiyot fanini o‘qitishda yangicha yondashuvlar, talablar o‘quvchilarda ham adabiyotga munosabatni o‘zgartirdi. Xususan, ayni davrda yoshlar adabiyot fanini faqat oliv ta’lim muassasalariga kirish uchun bo‘ladigan test sinovlariga tayyorgarlik nuqtai nazaridan emas, balki o‘z tafakkuri, tasavvuri, didi, saviyasi, umuman, ma’naviy qarashlarini yuksaltirish maqsadi bilan o‘rganishi zarurligini his qila boshladilar”⁷

Olima bugunga qadar adabiy ta’lim sohasida milliy manbalarda aks etgan ma’lumotlarni to‘ldirish uchun ko‘proq o‘qitishning xorijiy tajribasiga qaratilgan va milliy adabiy ta’limda mavjud bo‘limgan yoki u qadar keng yoritilmagan nazariy qarashlar tahliliga e’tibor bergen. Z.Mirzayeva va K.Jalilov hamkorligida yaratilgan”Adabiyot o‘qitish metodikasi”(an’anaviylikdan zamonaviylikka)” ilmiy risola ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, uning birinchi bo‘limida adabiyot o‘qitish metodikasining nazariy asoslari haqida ma’lumot berilsa, ikkinchi bo‘limida nazariy tushunchaning amaliyatga tadbiqi bilan bog‘liq ma’lumotlarga e’tibor qaratiladi. Umumta’lim maktablarining quyi va yuqori bosqichlarida amaldagi adabiyot darslarining kutilgan darajada emasligi, adabiyot darsliklaridagi savol-topshiriqlar bolani tanqidiy fikrlashga, tafakkurini rivojlanishiga ta’sir etmayotganligi bizga sir emasligi uqtirib o‘tilgan.

Kitobda keyingi o‘n yillikda yaratilgan adabiyot o‘qitish metodikasi yo‘nalishida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar, darsliklar, o‘quv, o‘quv-uslubiy qo’llanmalarni jahon adabiy ta’limi bilan qiyosiy o‘rganish natijasida milliy metodika kutilgan darajada xalqaro standartlarga mos rivojlana olmayotganligining eng muhim sabablari quyidagicha tasniflab o‘tilgan:

Birinchidan, adabiy ta’lim, jumladan, badiiy asarni o‘qitish yoki o‘rganishga qaratilgan muayyan konseptual yondashuvlarning nazariy asoslari yaratilmayotganligi; Ikkinchidan, fan va ta’lim integratsiyasi faqat qog‘ozlarda qolib ketayotganligi, metodika sohasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar amaliyatga izchil tatbiq etilmayotganligi, aniqroq qilib aytganda, adabiy ta’lim va pragmatism o‘rtasidagi aloqaning butkul uzilib qolganligi;

Uchinchidan, yaratilayotgan tadqiqotlar adabiy ta’limning faqat ichki imkoniyatlari bilan cheklanganligi, milliy adabiy ta’lim muammolari rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi o‘qitishning ilg‘or tajribalari, boy ilmiy nazariy fikrlar, yondashuvlarning qiyosiy tahlilga

⁷ Z.Mirzayeva, K.Jalilov Adabiyot o‘qitish metodikasi(an’anaviylikdan zamonaviylikka). Uslubiy qo’llanma.T.: 2020.6 b

asoslanmaganligi va ayrim holatlarda samarasiz o'qitish usullari qobiqlaridan chiqib keta olmaslik holatlari va yana bir qator no'malum sabablar⁸.

2022-yil D.To'xliyeva tomonidan "Umumi o'rta ta'lim maktablarining 6-11-sinflarida g'azal o'qitish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi PhD dissertatsiyasini himoya qilingan. Tadqiqotda g'azal janri namunalarini o'qitishni yangi va samarali metodlar asosida takomillashtirish, ilmiy asoslarga tayangan g'azal janri tahlili, tarixi va nazariyasiga oid ilmiy xulosalar, kuzatishlar olib borilgan. ⁹Metodist olma adabiyot darslarini to'g'ri tashkil etish, xususan, ta'lim bosqichlarida mumtoz janrlarni o'qitish va o'rgatish jarayonida lirik turga mansub asarlarni o'rgatish bilan aloqador tendensiyalarni shakllantirish, lirik asarlar tahlilida g'oya izlashdan qochish, adabiy-estetik didni oshirish, o'quvchilarni obrazli fikrashga yo'naltirish lozimligini ta'kidlaydi. B.To'xliyevaning mazkur fikrlari ijod maktablarining adabiyot darslarida mumtoz asarlarni o'rgatish,xususan, g'azal janri tahlilini qay yo'sinda amalga oshirish, bayt va misralardagi notanish so'zlar bilan o'quvchilarni tanishtirish, ijodkor poetik niyatini anglatishda qo'l keladi. Zero, mazkur tadqiqot amaliyot bilan bog'liq holda amalga oshirilgan. Tadqiqotning tajriba-sinov ishlari ilmiy-metodik jihatdan asoslangan.

Yuqorida zikr etilgan, tahlilga tortilgan darslik, risola va qo'llanmalar, tadqiqotlar mundarijasi shuni ko'rsatadiki, o'zbek milliy metodikasida adabiyot o'qitish muammolari doirasida mumtoz asarlarni o'qitish, o'rgatish, sharhlab tushuntirish, matndagi ma'no nafosatini his qildirish, muallif poetik niyatini to'g'ri anglatish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilgan. Natijada mazkur ishlarda mumtoz asarlarni sharhlab o'qitish matn bilan ishslash, o'tmis asarlarni o'qishda qiroatga amal qilish, urg'u va uning ko'chishiga, vazniga, ohangiga, to'g'ri talaffuziga e'tibor berish, mumtoz adabiyotda badiiy tasvir ifodaliligi va xushohangligi, harfiy san'atlarni belgilay olish hamda lirik janrlarni, dostonlar va nasriy asarlarni sharhlab o'qitish bilan bog'liq masalalar qamrab olingan. Ilm-fan jiddiy taraqqiyotlarga yuz tutayotgan bir paytda mumtoz asarlar mazmun-mohiyatini yangicha usulda tushuntirish, axborot texnologiyalaridan bemalol foydalana oladigan bugungi zamonaviy o'quvchiga mumtoz asarlarni yangicha yondashuvlar asosida o'rgatish ehtiyojining mavjudligi mumtoz asarlarni o'qitsh metodikasini takomillashtirishga oid yangi tadqiqot va kuzatishlar olib borishni talab etadi.Zero, yangicha mezon va yondashuvlarga asoslangan filologik, ilmiy-metodik tadqiqotlar natijasida adabiy ta'limda mumtoz asarlar matnnini to'liq o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu orqali bugungi kun o'quvchisida badiiy did va adabiy idrok, estetik tafakkur shakllantiriladi hamda tadqiqotchilik malakasi hosil qildiriladi. Shu bois iqtidorli yoshlarni o'zida qamrab olgan, eng so'nggi axborot resurslari bilan jihozlantirilgan ijod maktablarining adabiyot darslarida mumtoz asarlarni o'rgatish, o'quvchilarda mumtoz namunalarga muhabbat tuyg'usini uyg'otish, zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida mumtoz matn bilan ishslash ko'nikmasini shakllantirish dolzarblik kasb etadi.

⁸ Z.Mirzayeva, K.Jalilov Adabiyot o'qitish metodikasi(an'anaviylikdan zamonaviylikka). Uslubiy qo'llanma.T.: 2020.14 b

⁹ To'xliyeva Dilfuza Boqjon qizi. Umumi o'rta ta'lim maktablarining 6-11-sinflarida g'azal o'qitish metodikasini takomillashtirish: 13.00.02. – Toshkent: 2022. B-5

Foydalaniłgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zununov. A., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o'qitish metodikasi.-Toshkent: O'qituvchi,1992.
- 2.G'ulomov A.,Qodirov M.,Ernazarova M.,Bobomurodova A.,Alavutdinova N.,Karimjonova V.Ona tili o'qitish metodikasi.-Toshkent: Fan va texnologiya ,2012.
3. Zununov A.,J.Esonov Adabiyot o'qitish metodikasi:- Toshkent: O'qituvchi. 1985.
4. Husanboyeva Q.Niyozmetova R.Adabiyot o'qitish metodikasi.o'quv qo'llanma.-T.:Barkamol fayz media,2018.
5. Yo'ldashev Q. Adabiy saboqlar: Umumta'lim maktablarining 7-sinf "Adabiyot" darsligi uchun metodik qo'llanma.-T.: Bilim,2003.
- 6.Z.Mirzayeva, K.Jalilov Adabiyot o'qitish metodikasi(an'anaviylikdan zamonaviylikka). Uslubiy qo'llanma.T.: 2020.
7. To'xliyeva Dilfuza Boqijon qizi. Umumiyo o'rta ta'lim maktablarining 6-11-sinflarida g'azal o'qitish metodikasini takomillashtirish: 13.00.02. –Toshkent: 2022.